

меры. И вряд ли эффективные. Поэтому вырисовываются контуры обречённости власти различных стран мира в связи усиливающейся интернет-демократией. Возможно настанут времена ограничения интернет-пользования и на этот счёт разрабатываются проекты не только в России, но и в США. Китай — лидер в этих проектах.

Выводы:

1. Проведён контент-анализ молодёжных социальных сетей мира.
2. Показано, что у молодёжи мира имеет место низкий социальный интеллект, благодаря которому молодёжь может стать жертвой манипуляций.
3. Показано, что социально-экономическое состояние молодёжи является главным фактором деструктивного развития современной молодежи.
4. Обозначены контуры профилактики деструктивных процессов среди молодёжи всего мира.

Библиография:

1. Р.Р. Гарифуллин, Психология манипуляций, иллюзий, блефа, 2018, Издательство "Бриг", 400 с.

ELEKTRON VOSITALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

(PhD), S.Yu. Rajabova

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari texnologiya fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar va elektron vositalar orqali o‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasi yoritib berilgan.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarga ta‘lim berishning zamonaviy innovatsion uslublari joriy etish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya‘ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta‘kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha harajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari texnologiya fani konsepsiyasining asosiy maqsadi va vazifalari, rivojlanishining ustivor yo‘nalishlari amaliy fanlar tavsifi va integratsiyasi.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish Amaliy fanlar tarkibida olib boriladi.

Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini STEAM ta'limini joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Ilgari mehnat darslarida qizlar faqat fartuk tikishni, o'g'il bolalar yog'ochga va metallga ishlov berishni, tasviriy san'at va chizmachilik darslarida rasm va chizmalar, qalam bilan qo'lda chizishni o'rganishgan bo'lsa, hozirga kunda buning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Bugungi kunda butun dunyo maktab o'quvchilarini robototexnika, modellash, konstruksiyalashtirish, dasturlashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko'plab yangiliklar qiziqirmoqda.

Texnologiya o'quv predmeti o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida gazlamalarga ishlov berish texnologiyasini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni ko'zda tutgan. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.






O'quvchilarni texnologiya fani amaliy mashg'ulotida Autodesk Sketchbook dasturida o'qitish orqali kreativ kompetentligini rivojlantiriladi.

Autodesk Sketchbook dasturi yordamida turli grafik ko'rinishlarni loyihalash, foto, matn, tasvirlar ustida ishlash, ayniqsa, badiiy ko'rinishdagi kompozitsiyalarni tahrir qilish bilan bog'liq amallarni bajarish mumkin.

Gazlamaga ishlov berish bo'limini o'qitishda Autodesk Sketchbook dasturidan biz asosan turli logotiplar, naqshlar, firma uslublarini yaratishda qo'llanilsa o'quvchilar innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanib, kasbiy qiziqishlari ortadi.

Misol tariqasida tayyor modelda turli naqsh va logotiplarni joylashtirishning texnologik xaratasini ko'rib chiqamiz.

Autodesk Sketchbook dasturida libosga logotip chizish metodikasi

№	Bajariladigan operatsiya tartibi	Bajarilgan operatsiyaning grafik ko'rinishi
1.	Uskunalar panelidagi geometrik shakllar kesishmasidan foydalanib kerakli shaklni hosil qilinadi. Hosil qilingan shaklga rang tanlanib rang tanlash menyusidan kist instrumenti orqali rang beriladi.	
2.	Kist orqali shaklga fon rangi tanlanib rang beriladi.	
3.	Instrumentlar panelidan lastik instrumenti tanlanib yordamchi chiziqlar o'chirib tashlanadi.	
4.	Kerakli logotipni shaklini chizish uchun shakl "kopirovat" amalini bajarish orqali ko'chiriladi. Yangi hosil qilingan shaklga rang beriladi.	
5.	Shaklga kerakli rang berilib shakl tekislanib oxirgi ishlov beriladi.	
6.	Logotib qo'yilishi kerak bo'lgan model tanlanib uni asosiy ekranga joylashtiriladi.	
7.	Tayyor logotib modelni kerakli joyiga joylashtirilib, ortiqcha chiziqlardan tozalanadi.	

Elektron vositalar asosida o'quvchilarda kreativ kompetentligini rivojlantirish va maktab ta'limi tizimidagi o'qitish jarayonini innovatsion talablar va kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi 2021 yil
2. S.Yu.Rajabova "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining konstruktorlik texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi" dissertatsiya T 2020 yil

**MATEMATIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Alimov Salohiddin Hikmat o'g'li,
Xolmanova Klara Yangiboy qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

klaraxolmanova97@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo, o'qitish sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish sifat darajasini ilg'or xorijiy tajribalar asosida oshirish to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, modellashtirish, grafik rejim, zamonaviy axborot texnologiyalari.

Bugungi kunda dunyo miqyosida matematika ta'limini takomillashtirish bo'yicha intensiv ishlar amalga oshirilmoqda: matematika o'qitishning maqsadlari, o'quv materialini mazmunini tanlash tamoyillari aniqlashtirilayapti, darsliklar va boshqa o'quv vositalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda, o'qitishning samarali shakllari va metodlari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon hozirgi vaqtdagi fanning, fan va texnika o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishi, jamiyatning barcha sohalariga, yangi axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga asoslangan ilmiy-texnik revolyusiyaning natijalarini o'z ichiga qamrab oladi. Matematika fanining inson aql-zakovati, diqqatini rivojlantirish, maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalash, algoritmik intizomni ta'minlash, tafakkurini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Matematika olam haqidagi bilimlarning asosi bo'lib, ishlab chiqarish, fan va texnika taraqqiyotida, shuningdek, atrofimizdagi hodisa va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida matematika fanini o'qitish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning mohiyatini o'rganish, xorijiy tajribalarning ijobiy hamda salbiy tomonlarini ko'rsatib berishdan iborat [4]. Talabalarda matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanmasdan bo'lmaydi. Bunday masalalarni yechish o'quvchilarda